

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TIL O'RGANISH: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR

Narimanova Mashhura Ulug'bek qiz

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt asosida til o'rganish jarayonining imkoniyatlari va cheklovlari keng va tahliliy yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot davomida sun'iy intellektning o'quv jarayonini individuallashtirish, til ko'nikmalarini rivojlantirish, motivatsiyani oshirish va mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlashdagi roli batafsil ochib beriladi. Shu bilan birga, texnologiyaga qaramlik, pedagogik nazoratning kamayishi, ma'lumotlarning ishonchliligi va emotsional omillarning yetishmasligi kabi muammolar ham chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasiida sun'iy intellekt va an'anaviy ta'limning uyg'unligi eng samarali yondashuv ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, til o'rganish, raqamli ta'lim, chatbotlar, til kompetensiyasi, motivatsiya

Abstract. This article provides a broad and analytical discussion of the opportunities and limitations of language learning based on artificial intelligence. During the study, the role of artificial intelligence in individualizing the learning process, developing language skills, increasing motivation, and supporting independent learning is thoroughly examined. At the same time, issues such as technological dependence, reduced pedagogical control, the reliability of information, and the lack of emotional factors are also deeply analyzed. The study concludes that the most effective approach is the integration of artificial intelligence with traditional education.

Keywords: artificial intelligence, language learning, digital education, chatbots, language competence, motivation

Аннотация. В данной статье на основе широкого и аналитического подхода рассматриваются возможности и ограничения процесса изучения языков с использованием искусственного интеллекта. В ходе исследования подробно раскрывается роль искусственного интеллекта в индивидуализации учебного процесса, развитии языковых навыков, повышении мотивации и поддержке самостоятельного обучения. В то же время глубоко анализируются такие проблемы, как зависимость от технологий, снижение педагогического контроля, достоверность информации и недостаток эмоциональных факторов. В результате исследования обосновывается, что наиболее эффективным подходом является сочетание искусственного интеллекта и традиционного обучения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, изучение языков, цифровое образование, чат-боты, языковая компетенция, мотивация.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi jadal rivojlanayotgan axborot texnologiyalari ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi til o'rganish jarayonini yanada samarali va qulay holga keltirdi. Endilikda o'quvchilar nafaqat dars jarayonida, balki mustaqil ravishda ham turli raqamli platformalar orqali til o'rganish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

Tadqiqotchilar fikricha, "Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar o'quvchining bilim darajasini aniqlab, unga mos o'quv materiallarini taqdim eta oladi" ("Holmes va boshqalar", 2019). Bu esa an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan yanada samarali natijalarni

ta'minlaydi. Shu bilan birga, "Sun'iy intellekt inson o'qituvchini to'liq almashtira olmaydi, balki uni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi" ("Luckin", 2018).

Asosiy qism. Sun'iy intellekt asosida til o'rganishning imkoniyatlari

1. Ta'limni individuallashtirish

Sun'iy intellektning eng muhim afzalliklaridan biri - bu o'quv jarayonini individuallashtirishdir. An'anaviy darslarda o'qituvchi barcha o'quvchilarga bir xil materialni taqdim etadi. Biroq AI tizimlari har bir o'quvchining bilim darajasi, xatolari va o'rganish tezligini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni beradi.

Masalan, grammatikada qiynalayotgan o'quvchiga ko'proq mashqlar beriladi, yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchi esa murakkabroq vazifalarga o'tadi. Shu bilan birga har bir o'quvchiga individual yondashuv sabab o'quvchining shaxsiyatiga moslashish hususiyatiga ega. Buning natijasida har bir o'quvchining qiziqishi, qobiliyati va uslubidan kelib chiqqan holatda yondashadi va shuholatdan kelib chiqqan holatda biim o'zlashtirishiga ham yordam bera oladi. Shu sababli "sun'iy intellekt yordamida ta'lim jarayoni moslashuvchan va samarali bo'ladi" ("Luckin", 2018).

2. Til ko'nikmalarini rivojlantirish

Sun'iy intellekt asosidagi platformalar til o'rganishda muhim bo'lgan to'rt asosiy ko'nikmani birvarakay rivojlantirishga yordam bera oladi: tinglash, o'qish, yozish va gapirish. Sun'iy intellekt yozma ish va topshiriqlaringizni tekshirish bilan birga og'zaki nutqni ham baholay oladi. "Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari o'rganish jarayonini samarali tashkil etadi" ("Godwin-Jones", 2017). Ayni jarayonda xatolarini aniqlab o'quvchiga o'z kamchiliklarini tezroq tushunishga, ularni tahlil qilishga va o'zlashtirishga yordam beradi. Har qanday tilni o'rganishda xatolar ustida ishlash til o'rganish jarayonini tezligi va sifatiga katta tasir qiladi. "Sun'iy intellekt asosidagi vositalar tezkor fikr-mulohaza berish orqali til o'rganishni tezlashtiradi" ("Zhao", 2020).

3. Motivatsiyani oshirish

Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan ilovalar o'quv jarayonini qiziqarli qiladi. Darajaga mos turli topshiriqlar o'yin ko'rinishida yoki istalgan boshqa kurinishda tayyorlash tizimi va baholash, rag'batlantirish tizimi o'quvchini faol bo'lishga undaydi. "Texnologiyaga asoslangan o'quv muhitlari o'quvchilarning qiziqishini va mustaqilligini oshiradi" ("Chapelle", 2003). Natijada o'quvchilar til o'rganishga ko'proq vaqt ajratadi va samaradorlik oshadi.

4. Mustaqil ta'lim imkoniyati

Sun'iy intellekt o'quvchilarga istalgan vaqt va joyda o'rganish imkonini beradi. Bu ayniqsa zamonaviy yoshlar uchun juda qulaydir. Doimiy mavjudlik, ilmiy keng bazasi o'quvchi o'ziga qulay vaqtda, har qanaqa mavzudagi savolga javob ola olishligi o'quvchining bilmiga ham, bilim olishga bo'lgan qiziqishiga ham katta tasir qiladi. O'qituvchisi yonida bo'lmagan holatda yoki o'quv guruhlarida o'quvchilar soni ko'pligi hisobiga umumiy tushuntirish natijasida o'quvchida savol yoki tushunmovchilik paydo bo'lgan holatda SI yordamida javob ola olish imkoniyati o'quvchidagi tushunmovchilikva havotir hissini kamaytiradi. Bilmidagi kamchiliklar tuldirilishi o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. "Mobil texnologiyalar asosidagi til o'rganish mustaqil ta'limni rivojlantiradi" ("Kukulska-Hulme", 2013).

Sun'iy intellektning cheklovlari

1. Texnologiyaga qaramlik

Sun'iy intellektdan haddan tashqari foydalanish o'quvchini mustaqil fikrlashiga salbiy tasir qilishi mumkin. Har doim va oddiy narsalarda ham SI dan ko'mak olish

borib, borib faqatgina ko'chirmakashlikka olib kelishi mumkin. O'quvchilardan sun'iy intellekt cheklangan holatda fikrlashni talab qiladigan savollar berilganda ham ularda qiyichiliklar yuzaga kelishi mumkin yani ijodiy fikrlashning tushibketganligi sababli. Inson aql-idroki , fikr vatafakkuri orqali rivojlanadi . Agar yoshlarda bunday muammo avjolsa bu nafaqat yoshlarning yurt va dunyoning ham kelajagiga havf solishi mumkin Zero kelajak yoshlar qulida.

2. Pedagogik omilning kamayishi

Til o'rganishda o'qituvchi juda muhim rol o'ynaydi. SI hech qachon insonga teng kela olmaydi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi insoniy munosabatlar o'rnini bosa olmaydi. O'qituvchi o'quvchini nazorat qiladi, tanbeh va rahbatni urnli va me'orida qo'llaydi , tana tili yuz ifodalari orqali tushuntirish yanada samarali bo'ladi va yo'l ko'rsatadi. SI esa bu vazifani to'liq bajara olmaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt til o'rganishda katta imkoniyatlarga ega. Biroq uning samaradorligi uni qanday qo'llashga bog'liq. Agar Al faqat asosiy vosita sifatida ishlatilsa, bu yetarli bo'lmaydi. Lekin u o'qituvchi bilan birgalikda ishlatilsa, natija ancha yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt til o'rganishda muhim vosita hisoblanadi. U o'quv jarayonini osonlashtiradi, tezlashiradi va qiziqarli qiladi.

Shu bilan birga, uning ayrim cheklovlari ham mavjud. Shuning uchun eng to'g'ri yondashuv - bu sun'iy intellekt va an'anaviy ta'limni birlashtirishdir.

Kelajakda ushbu ikki yondashuvni uyg'unlashtirish orqali til o'rganish yanada samarali bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Sun'iy intellektning chet tilini o'qitishdagi yutuqlari va kamchiliklari" - Shirinova F., 2026.
2. "Sun'iy intellekt ta'limda: imkoniyatlar va istiqbollor" - Holmes W., 2019.
3. "Ta'limda sun'iy intellekt va inson omili" - Luckin R., 2018.
4. "Texnologiyalar asosida til o'rganish" - Chapelle C., 2003.
5. "Sun'iy intellekt va til ta'limi" - Zhao Y., 2020.
6. "Raqamli ta'lim va til o'rganish" - Godwin-Jones R., 2017.
7. "Mobil ta'lim va til o'rganish" - Kukulska-Hulme A., 2013.
8. -"Ta'limda texnologiyalarning roli" - Selwyn N., 2019.
9. "Sun'iy intellektning chet tilini o'qitish: imkoniyat va cheklovlari" - Shokirova J., 2025